

**XIV ASRNING 2-YARMI VA XV ASR BOSHLARIGA OID TARIXIY
MANBALARDA MOVAROUNNAHR SIYOSIY ELITASI TARKIBINING
YORITILISHI.**

*Ichki Ishlar Vazirligi Farg‘ona
akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi
Odilbek Karimov Raximjonovich*

Bugungi kunda tarixga doir tadqiqotlar, ilmiy izlanishlarni amalga oshirishda manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Tarix fanida ilmiylikni, holislikni hamda tarixiylikni ta’minlashda, tadqiqotda bayon qilingan fikr va mulohazalarning ishonchliligi, eng avvalo, tarixiy manbalarda keltirilgan ma’lumotlar bilan uzviy bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov ta’kidlaganidek, “o‘z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo‘lmash ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur”¹. Shuningdek, tarixiy manbalar sohtalikdan qochishda, tarixiy voqelik hamda izchillikni yoritishda asosiy ko‘makchi hisoblanadi.

Bugungi kunda Amir Temur va Temuriylar davri haqida tarixiy asarlarni yozish o‘sha davrlardayoq keng rivoj topib, keyingi davrlarda ham izchil davom etgan. Tarixiy asarlarda asosan, Amir Temurning markazlashgan davlat barpo etish uchun olib borgan kurashlari, harbiy yurishlari, davlatchilik siyosati hamda xalqaro diplomatik va savdo aloqalarini mustahkamlash tadbirlari, o‘z sultanatida dehqonchilik, hunarmandchilik, madaniy sohalarni rivojlantirish yo‘lida amalga oshirgan chora-tadbirlari bayon etilgan.

Amir Temur tarixiga bag‘ishlangan ilk tarixiy asar G‘iyosiddin Alining “Ro‘znomai g‘azovoti Hindiston” bo‘lib², unda Amir Temurning 1398-1399-yillargi Hindiston yurishi batafsil tasvirlangan. Asarda 1399-yildan to 1403-yilgacha davom etgan Hindiston yurishi tarixi kunma-kun va batafsil yozilgan. Bu asar Amir Temurning shaxsiy ko‘rsatmasi bilan 1399-1403-yillarda yozilgan. Ushbu asar unda aniq ma’lumotlar bayon etilganligi uchun qimmatli manba hisoblanadi. Mavzuga

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998. –Б. 24-25.

² Семенов А.А. Предисловие переводчика. // Гийасаддин Али. Дневник похода Тимура в Индию. // Пер. с перс. предис. и примеч. А.А.Семенова. – М.: Вост., 1958. – С. 5-8. (кейинги ўринларда – Гийасаддин Али. Дневник). Амир Темур жаҳон тарихида. // масъул мухаррир X.Кароматов. Муаллифлар жамоаси: С.Сайдосимов (рахбар), А.Ахмедов, Б.Ахмедов ва бошқ.Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашри – Т.: Шарқ, 2001. –Б. 196. (кейинг ўринларда - Амир Темур жаҳон тарихида). Ахмедов Б. Ўзбекистоннинг атоқли тарихшунос олимлар (био-библиографик маълумотнома). Нашрга тайёрловчилар; Бахтиёр Қосимов, т.ф.н. Музаффар Ахмедов. Тарихшунослар ва тарих муаллимлари учун кўлланма. – Т.: “Чўлпон”, 2003. – Б. 76. (кейинг ўринларда – Ахмедов Б. Ўзбекистоннинг атоқли тарихшунос олимлар)

ta’luqli jihatlaridan biri Amir Temurning Hindiston yurishlari davrida Jamda daryosi bo‘yida joylashgan bir viloyatning hukmdori bo‘lgan Shahobiddin Muborakning ammirzoda Pir Muhammad Mo‘ton hududiga yetib borganda amirzodaning oldiga borib itoat etganligini, keyinchalik esa itoatsizlik yo‘liga kirganligini so‘ng unga qarshi Shayx Nuriddin boshchiligidan maxsus qo‘sishin yuborganigi keltirilgan³. Bu haqda Nizomiddin Shomiy hamda Ali Yazdiylar ham o‘z asarlarida bayon qilganlar.

Tadqiqotda foydalanilgan yozma yodgorliklarning eng dastlabkilaridan yana biri hamda Amir Temurning bevosita topshirig‘i bilan yozilgan tarixiy asar Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asari hisoblanadi. Asar hamda uning muallifi haqida manbashunoslikda talaygina tadqiqotlar amalga oshirilgan. Nizomiddin Shomiy o‘z asarini 1402-1403-yillar orasida Amir Temurning topshirig‘i bilan yozgan. Asarda Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishidan (1370) to uning G‘arbiy Eron, Iroq, Suriya, Kichik Osiyo va Turkistonga qilgan yetti yillik yurishi voqealari bayon qiligan. Asar ikkita nusxada bizning zamonamizgacha yetib kelgan. Bitta nusxa Tukiyada – “Nuri Usmoniya” kutubxonasida (tartib raqami: 3367), ikkinchisi Angliyada – Britaniya muzeyida (tartib raqami: 23980) saqlanmoqda. “Zafarnoma” sudda tilda, ravon uslubda yozilgan; daliliy ma’lumotlarga boy. Lekin, Temurning hayoti mazkur asarda birmuncha (lekin Sharafuddin Aliyazdiyga nisbatan kamroq) ideallashtirilgan⁴.

Shuningdek, asarda tadqiqot bilan bog‘liq, ya’ni Amir Temurni yoshligidan to umrining oxirigacha bo‘lgan davrda Movarounnahrdagi siyosiy vaziyat hamda ushu vaziyatga Amir Temurni ta’siri, mana shu jarayonlarda Amir Temurga yordam bergen, shu bilan birga unga qarshi turgan siyosiy elita vakillari haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Amir Temur yoshlik yillarda Movarounnahri idora qilgan Donishmandcha⁵ va Tug‘luq Temurlarning⁶ qisqacha tarixi, Amir Temur hamda Amir Husayn o‘rtasidagi siyosiy vaziyat hamda mana shu siyosiy vaziyatda Movarounnahrdagi siyosiy elitaning qanday o‘zgarib borishi haqida ma’lumotlar mavjud. Xususan, Amir Temur tomonidan 1398-yilgi Hindiston yurishi davrida Batnayr qal’asining egallanishida ammirzoda shayx Nuriddinni gabrlar jamoasi o‘rtaga olib qo‘lga tushirishlariga yaqin qolgan paytda Feruz Seistoniy va uning ba’zi

³ Гийасаддин Али. Дневник. – С. 81-82.

⁴ O’rinboyev A. Nizomiddin Shomiy va uning “Zafarnoma” asari. / Nizomiddin Shomiy Zafarnoma /Fors tilidan o‘giruvchi Yu. Hakimjonov, tarjimani qayta ishlab nashrga tayyorlovchi va mas’ul muharrir – A.O’rinboyev, izohlar va lug’atlarni tuzuvchi – H.Karomatov (jug’rofiy nomlar izohi – O.Bo’riyevniki), Hofizu Abruni “Zafarnoma”ga yozgan “Zayl”i (“Ilova”) ni forsiydan o‘giruvchi va izohlarini tuzuvchi – O.Bo’riyev – Т.: Fan, 2019. –В. 3-10 (keying o’rinlarda – Shomiy. Zafarnoma). Амир Темур жаҳон тарихида. –В. 196. Аҳмедов Б. Ўзбекистоннинг атоқли тарихшунос олимлар. –В. 15-16. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. –Т.: Ўқитувчи. 2001. –Б. 165-167. (кейинг ўринларда - Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари).

⁵ Donishmandcha – Chig’atoy ulusida 1346-yilda taxtga o’tirgan, 1348-yilda o’dirilgan. Kengroq ma’lumot uchun qarang: Nizomiddin Shomiy Zafarnoma. – В. 26.

⁶ Tug‘luq Temur – 1348-1362-yillarda Mo’g’ulistonida hukmronlik qilgan. 1360-1361-yillar davomida ikki marta movorounnahrga yurish qilib, Qashqadaryogacha bo‘lgan yerlarda qisqa muddatli hukmronlik qilgan. 1362-yilda vafot etgan. Kengroq ma’lumot uchun qarang: Nizomiddin Shomiy Zafarnoma. – В. 26.

hodimlari dushman ustiga o‘q yog‘dirib, uni jang ma’rakasidan qutqarib qolganligi Amir Temur buning mukofitiga inom-ehsonlari bilan taqdirlaganligi keltirilgan⁷. Shuningdek, Amir Temurning Dehli voliysi Sulton Mahmud⁸ga qarsgi janggida qo‘shining o‘ng qo‘lida amirzoda Pir Muhammad bahodir, amirzoda Sulaymonshoh bahodir va o‘zga amirlar turganligi, chap qo‘lda amirzoda Sulton Husayn bahodir, amirzoda Xalil Sulton bahodir, Jahonshoh bahodir va boshqa amirlar, mang‘loyda amirzoda Rustam bahodir, amir shayx Nuriddin bahodir, amir Shoh Malik, Allohdod va o‘zgalar turganligi qayd etilgan⁹. Ushbu manbaning o‘sha davrdagi boshqa manbalardan farqi shundaki, Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelguniga qadar bo‘lgan davrdan to uning vafotiga qadar bo‘lgan davrgacha Movarounnahrning siyosiy elitasi hamda Amir Temurning harbiy yurishlarida qatnashgan amirlar, beklar va boshqa toifa vakillari haqida ko‘plab qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

Amir Temurga bag‘ishlangan asarlarning eng qimmatilari, Amir Temurni bevosita ko‘rgan va bilgan, u bilan yuzma-yuz muloqotda bo‘lgan mualliflarning qalamiga mansub asarlar nihoyatda qimmatli hisonlanadi. Ana shunday asarlardan biri ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning “Samarqandga – Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406)” asaridir¹⁰. Mavzuga ta’luqli jihatni Temurbek urug‘idan bo‘lgan, saltanatga ko‘tarilishidan boshlab u bilan birgalikda harakat qilgan, unga yordam bergen eng shonli safdoshlaridan biri bo‘lgan chig‘atoy (bek) haqida ma’lumot keltirilgan. Temurbek unga o‘z singlisini bergenligini va uni oily amaldor darajasiga ko‘targanligini hamda ko‘pchilik ustidan boshliq etib tayinlanganligi bayon qilingan. Keyinchalik mazkur amaldorning Yansa Murassa¹¹ degan o‘g‘il ko‘rganligi, Yansa Murassa podshohning eng yaqin odami, katta yer va ulus mutasaddisi, podshoh qo‘shining boshlig‘i, ya’ni bosh suvoriy, xullas, shu qadar katta hokimiyatga egaligi, podshohdan boshqa hech kimda bunday hokimiyat yo‘qligi yozilgan¹².

Amir Temur va temuriylar davriga oid tarixiy manbalardan yan biri o‘sha davr tarixchisi Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari bo‘lib, ko‘tarinki uslubda va bahdirlik qissasi tarzida yozilgan. Asar Amir Temur tarixi, uning tavallud topishidan

⁷ Shomiy. Zafarnoma. – B. 236.

⁸ Sulton Mahmud (Sulton Nasiriddin Mahmudshoh II – 1393-1413-yillar) – Tug‘luqiyalar sulolasi (1320-1414)ga mansub hukmdor.

⁹ Shomiy. Zafarnoma. – B. 243.

¹⁰ Сафаров М. Сўзбоши. / Гонсалес, Руи де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406). [Текст] Гонсалес, Руи де Клавихо.; / Масъул мухаррир: Мухаммад Али; сўзбоши ва изоҳлар муаллифи М.Сафаров. Таржимон О.Тоғаев, - Т.: Ўзбекистон, 2010. – Б. 3-19. (Кейинги ўринларда – Клавихо Амур Темур саройига саёҳат кундалиги).

¹¹ Amir Temurning opa-singillariga Sohibqironning eng yaqin safdoshlaridan ikki kishi – Amir Dovud dulg‘at va Amir Muayyad orlotlar uylanishgan. Amir Dovud Amir Temurning opasi Qutlug’ Turkan oqaga, Amir Muayyad orlot esa Sohibqironning singlisi Sirinbekaga uylanishgan. Har ikkalasi ham yuksak martabali shaxslardir. Masalan, Amir Dovudbek Samarqand shahri hokimi hamda devon boshlig‘i mansablarida bo‘lsa, Amir Muayyad orlot – Saltanatda Amir-ul-umaro (bosh vazir) edi. Uning Ali degan farzandi bo‘lgan. Klavixo ularning qaysi birini nazarda tutayotganligini aniqlash ancha mushkul. Amir Jahonshoh esa ularning hech biriga emas, balki Amir Joku barlosga farzanddir.

¹² Klavixo Amur Temur saroyiga sayohat kundaligi. – B. 3-19.

(1336) to Xalil Sulton hukmronligiga chek qo‘yilishigacha (1409) bo‘lgan davrda Movarounnahr, Eron, Ozorbayjon va boshqa mamlakatlarda kechgan voqealarni o‘z ichiga oladi. Ushbu asar hamda uning muallifi haqida ham manbashunoslikda ko‘plab izlanishlar olib borilgan¹³. Ushbu asar Amir Temur tarixi yoritilgan eng mukammal asarlardan hisoblanadi.

Asar markazida asosan Amir Temur siyomosi turadi. Shuningdek, asarda Amir Hoji Sayfuddin va Amir husayn siymolari ham yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Amir Hoji Sayfuddinning umrining oxirigacha Amir Temurga sodiq qolganligi asarda keltirib o‘tilgan.

Asarda Amir Temurning siyosiy faoliyati va shu faoliyat davomida uning atrofida shakllangan amirlar, shuningdek, ushbu faoliyat davomida unga xiyonat qilgan amirlar haqida yetarlicha ma’lumot olish mumkin. Xususan, Alibek Joniqurbaniyning Amir Temur va Amir Husaynga qarshi amalga oshirgan qarshi ishlari davrida Muborakshoh Sanjariyning¹⁴ sohibqiron hizmatiga kelganligi ta’kidlangan.

Sharafiddin Ali Yazdiy Nizomiddin Shomiy asarida bayon etilgan voqealarning ba’zilarini yangi tarixiy manbalar asosida yangi fakt va dalillar bilan boyitgan. Xususan, Amir Temurning Hindistondagi Batnayr qal’asini fath etilishida ishtirok etgan Sulaymonshohbek, Sayyid Hoja va Jahan Maliklarni shahzoda Shohruhning beklari sifatida ta’riflaydi. Qala’ni fath etishda Jahan Malikni yaxshi ish qilganligini ketirilib o‘tgan¹⁵.

Sohibqiron vafotidan so‘ng ko‘p o‘tmay yaratilgan muhim tarixiy asarlardan biri Muiniddin Natanziyning “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy”¹⁶ asari bo‘lib, ushbu asarning aniq nomi ma’lum emas. Ushbu asar ilmiy jamoatchilik orasida “Anonim Iskandar” nomi bilan mashhurdir. Asar qisqa muqaddima va uch qismdan iborat. Asarning uchinchi qismining oxirgi bobo Amir Temur tarixiga bag‘ishlangan bo‘lib, u asardagi hajm jihatdan eng katta bobdir. Asarda Amir Temur hukmronligining dastlabki yillarida Shiburg‘on hokimi Zindachashmning sohibqironga ikkinchi marta yog‘iy bo‘lgani va Termiz xonzodasi¹⁷ bilan birgalikda Termiz viloyatida bosqin va

¹³ Ахмад А., Бобобеков Х. Сўзбоши. / Шарафиддин Али Яздий.. Зафарнома. / Сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари Ахмад А., Бобобеков Х. –Т.: Шарқ, 1997. –Б. 3-8. (Кейинги ўринларда – Яздий. Зафарнома.). Амир Темур жаҳон тарихида. –В. 197. Ахмедов Б. Ўзбекистоннинг атоқли тарихшунос олимлар. – В. 66-67. Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. –Б. 174-177.

¹⁴ Muborakshoh Sanjari – turkmanlarning sanjariy urug’ining begi. Amir sohibqironning egamenligini tan olib, unga bo’ysungan va natijada katta mansablarga erishgan. Kengroq ma’lumot uchun qarang: Yazdiy Zafarnoma. –В. 28.

¹⁵ Яздий. Зафарнома. –В. 201.

¹⁶ Фулом К. Сўз боши. / Муиниддин Натанзий.. Мунтахаб ут-таворихи Муиний. / Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Фулом Каримий; масъул мухаррир – А.Ўринбоев. – Т.: Ўзбекистон, 2011. –Б. 6-38. (Кейинги ўринларда – Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи Муиний). Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Б. 168-169. “Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотрасида”. (Рисола) / Б.Ахмедов, У.Уватов, F.Каримов ва бошқалар. – Т.: Ўқитувчи, 1996. –Б 135. (Кейинги ўринларда – Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотрасида)

¹⁷ Термиз хонзодаси – Термиз сайидлари хонадонидан бўлиб, мазкур сайидлар ўз вақтида сомонийлар сулоласи ва бошқа хукмдорлар билан қуда-андга бўлисҳагни усхун “хонзода” (ходовандзода, хонзода) лақабини хам олишган. Кенгроқ маълумот учун қаранг; Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи Муиний. –Б. 115.

g‘oratgarchiliklar qilganligi ta’kidlangan. Shuningdek, Amir Temmurning ikkinchi bor Mo‘g‘ulistonga yurish qilgan davrida Zartuq manziliga yetganda Amir Muso, Zindachashm, Amir Xizr Yasovuriyning o‘g‘li, Termiz xonzodasi hamda shayx Abulays Samarqandiylar ittifoq bo‘lib, Qarosmon manziliga yetganda Amir sohibqorinni qo‘lga olib, fitna buzg‘unchilikni boshlab yuborganligi lekin, bu ish amalga oshmaganligi va fitnachilar jazonlanganligi ta’kidlangan¹⁸. Bu haqda Sharafiddin Ali Yazdiyning asarida ham ketirilgan. Odun ko‘zi mavzeyiga yetganda Amir Muso va Zinda Chashmlarning ko‘ngliga muholifat tushganligi ta’kidlangan. Yazdining asarida Xizr Yasavuriyning o‘g‘li Is’haq ekanligi keltirilb o‘tilgan¹⁹. Shuningdek, Yazdiyning asarida fitna uyuştiriladigan joy Qaro Samon mavzeyi²⁰ haqida izoh berib ketilgan.

Amir Temmurning hayoti va siyosiy faoliyatiga bag‘ishlangan yana bir asarlardan biri Fasih Havofiyning “Mujmali fasihiy” asaridir. asar va uning muallifi haqida manbashunoslikda talaygina tadqiqotlar yaratilgan²¹. Asarda Amir Temur avlodiga bag‘ishlangan “Foyda” deb atalgan bo‘lim ham bor. Xusussan, Amir Temmurning 1402-yildagi Yildirim Boyazid bilan janggi Boyazidni esa Sulton Mahmudxon tomonidan qo‘lgan olinishi, amirzoda Muhammad Sultonni Sohibqiron buyrug‘i bilan Bursaga yuborilganligi ta’kidlangan.²² Bu voqealar haqida Shomiynig asarida to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. Xususan, asarda Muhammad Sultonning Bursaga yuborilishida amirzoda Abu Bakr bahodir, amir Jahonshoh bahodirlar o‘z lashkarlari bilan tobelikda jo‘natilganligi keltirilgan. Yazdiy asarida esa Muhammad Sultonga tobe sifatida amirzoda Abu Bakr bahodir, amir Jahonshoh bahodirlar bilan birgalikda Shayx Nuriddin va Sevinchakbek kabi amirlarning ham nomlari keltirib o‘tilgan²³. Shuningdek, Havofiyning asarida amirzoda Iskandar va amir Sulaymonshohlarning Ko‘niya, Aqshahar, Qora Hisor, Alaniya va Adaliyaga yuborilganligi bayon etilgan. Yazdiyning asrida esa amirzoda Iskandar va amir Sulaymonshohlarning nomlari bilan birga Sulton Husayn, Rustam Tag‘ay Bug‘o, Sayyid Hoji Shayx Ali Bahodir va Pir Ali Sulduz kabi amirlarning nomlari ham zikr qilingan²⁴.

Amir Temur hayoti va siyosiy faoliyatiga bag‘ishlangan tarixiy asarlardan biri Shahobuddin Ahmad ibn Muhammad ibn Abdulloh ibn Ibrohim (Ibn Arabshoh) ning

¹⁸ Натанзий. Мунтакаб ут-таворихи Муиний. –Б. 118-119.

¹⁹ Яздий. Зафарнома. –Б. 71-72.

²⁰ Қаро Самон – Ўтрор яқинидаги мавзе. Яздий. Зафарнома. –Б. 324.

²¹ Юсупова Д.Ю. Фасих Хавафи и его труд Муджмал-и Фасихи // Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи / Пред. предис. примич. и указатели Д.Ю.Юсуповой. Т.: Фан. 1980. –С. 5-29. (Кейинги ўринларда – Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи). Амир Темур ва Улугбек замондошлари хотрасида. -Б. 194-195. Амир Темур жаҳон тарихида. –В. 204. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. –Б. 300-301.

²² Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи. –С. 121-122.

²³ Shomiy. Zafarnoma. – В. 330. Яздий. Зафарнома. –Б. 262.

²⁴ Яздий. Зафарнома. –Б. 262

“Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur” (“Temur tarixida taqdir ajoyibotlari”)²⁵ asaridir. Asarning qadimiylaridan biri Damashqdagi (Suriya) Az-Zohiriya kutubxonasida (6893-raqami ostidagi ushbu qo‘lyozma 1492-yilda ko‘chirilgan) saqlanayotgan qadimiylaridan biri “Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur” (“Temur tarixida taqdir ajoyibotlari”) nomi bilan keltirilgan. Lekin muallif o‘z asarini dastlab “Ajoyib al-maqdur fi navoib Taymur” (“Temur keltirgan musibatlarda taqdir ajoyibotlari”) deb nomlagan bo‘lsa-da, ushbu asar keyingi barcha nashrlarda, biografik ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan qomuslarning ko‘philigidagi “Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur” (“Temur tarixida taqdir ajoyibotlari”) nomi bilan zikr qilingan. Asarda boshqa asarlarda uchramagan qimmatli ma’lumotlarni ko‘rishimiz mumkin. Xususan, Amir Temurning bolalik yillari, uning Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida tug‘ilganligi zikr qilingan. Shu bilan birga asrada Amir Temurning Amir Husaynga qarshi kurashi davrida, Sulton tomonidan Samarqandga noib qilib qo‘yilgan kishi Alisher degan shaxs bo‘lganligi, u davlat arkonlaridan biri ekanligi, Amir Temur unga noma yo‘llab, Movarounnahrni ikkisi o‘rtasida teng taqsimlashni va sulton Husaynga qarshi kurashda o‘zi bilan birga bo‘lishini xabar qiladi²⁶.

Ibn Arabshoh asarining o‘sha davrlarga ta’luqli manbalardan asosiy farqi sifatida e’tirof etishimiz mumkin, xususan, XIV asrning 50-60-yillaridagi Amir Temurning Qarshi hokimi Amir Musoga qarshi yoki Balx hokimi Amir Husanga qarshi kurashlarida uning amir yoki beklari haqida deyarli ma’lumot berilmagan. Shuningdek, ushbu asarda Amir Temurning o‘sirinlik davrlaridan boshlab uning xizmatida bo‘lgan Abbas, Jahonshoh, Qumori, Sulaymonshoh, Idiku Temur, Joku va Sayfuddin²⁷ kabi amir va beklari haqida qisqa ma’lumot keltirib o‘tilgan.

Amir Temurning murakkab hayotiy faoliyati va dastlabki muhorabalarini o‘z ifodasini topgan qimmatli asarlardan biri “Zafar yo‘li”²⁸ asaridir. Tadqiqotimizga ta’luqli jihat shundaki, Amir Temur o‘ziga adolatli va rahmdil to‘rt vazirni tanlaganligi, ulardan ikkitasi Mahmud Shahob Xurosoniy va Nosiriddin Mahmud al-Aromiy ekanligi ta’kidlangan. Amir Temur bu ikki vaziriga doimo uni uni kuzatib turishlarini va agaradolatsizlik qiladigan bo‘lsa, darhol to‘xtatishlarini, kimningdur yolg‘on so‘zlariga ishonsa yoki begona kishilarning mulklariga xiyonat qiladigan

²⁵ Уватов Й. Сўзбоши. // Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур: Темур тарихида тақдир ажойиботлари. //Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни У.Уватов тайёрлаган. 1-2-китоб. – Т.: Мехнат, 1992. 1-китоб, -Б. 5-63. (Кейинги ўринларда – Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур).

²⁶ Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур. -Б. 5-63.

²⁷ Темур ишларининг аввалидан уни қўллаб-кувватлаоб, кейинчалик эса унинг эътиборли амир ва лашкарбошиларидан хисобланган ушбу шахслар хақида ўша давр тарихчиларидан Низомиддин Шомий, Шарофиддин Али Яздий., Абдураззоқ Самарқандийлар бирталай маълумотлар келтирганлар.

²⁸ Амир Темурнинг ўзи ёзган (ёхуд котибга айтиб ёздирган). “Зафар йўли”: Нащрга тайёрловчи, таржимон, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи – А.Ахмад. Мухаррир – У.Отажон. Т.: “Нур”, 1992. – 112 б. (Кейинги ўринларда – “Зафар йўли”)

bo‘lsa darhol ogohlantirishlarini ta’kidlagan. Shuningdek, ularning o‘zlariga ham musulmonlarning moliga ta’ma qilmasligini ta’kidlagan²⁹.

Tadqiqotimizga ta’luqli yana bir ma’umotga ko‘ra, Amir Temurga Balx daryosi³⁰ bo‘yida Jeta o‘lkasining amiri Said Payg‘umbar hujum qilgan. Ana shu paytda Jakuy Barlos, Ingu Temur, Musa va Sulaymonlar³¹ yordam yuborganligi va bunday yordam tufayli amir Said Payg‘umbarning askarlarini batamom tor-mor qilganligi ta’kidlangan. Ushbu manbaning o‘scha davrlarga ta’luqli boshqa manbalardan farqi shundaki, ushbu asarda Amir Temur haqidagi va uning siyosiy faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar yetti yoshidan boshlab 39 yoshgacha bo‘lgan voqealar bayon qilingan.

Amir Temur tarixi hamda uning siyosiy faoliyatiga bag‘ishlangan asarlardan biri uning nabirasi Mirzo Ulug‘bekning bevsita rahbarligida yozilgan “Tarixi arba ulus” asari hisoblanadi³². Asar tarjimasi muqaddima hamda yetti bobdan iboratdir. Asarning eng muhim qismi – uning yettinchi bobidir. Unda Chig‘atoy ulusining Chingizzon zamonidan (1227) to Amir Temurning hokimiyyat tepasiga kelishi (1370) gacha bo‘lgan tarixi hikoya qilinadi. Ushbu asradan XIV asrning 50-60-yillaridagi Movarounnahrdagi siyosiy vaziyat haqida hamda ushbu siyosiy vaziyatda qatnashgan siyosiy elita vakillari haqida qimmatli ma’lumotlarni olishimiz mumkin. Shunday ma’lumotlardan biri, Chig‘atoy ulusida Bayonqulixon qatl etilgach, amirzoda Abdulla ibn Amir Qazag‘on Temurshoh ibn Esu Temurxon podshohlikka saylanganligi, Amir Bayon Sulduz itoat yo‘lidan chiqqanligi Amir Hoji Barlos bilan ittifoqlilikda amirzoda Abdulla ibn Amir Qazag‘on tarafga yurish boshlaganligi hamda ikki o‘rtadagi jangda Amir Bayon Sulduz g‘alaba qozonganligini va Movarounnahr diyorida podshohlik taxtiga o‘tirganligini ko‘rishimiz mumkin³³.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

- Гийасаддин Али. Дневник похода Тимура в Индию. // Пер. с перс. предис. и примеч. А.А.Семенова. – М.: Вост, 1958. – 206 с.
- Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma /Fors tilidan o‘giruvchi Yu. Hakimjonov, tarjimani qayta ishlab nashrga tayyorlovchi va mas’ul muharrir – A.O‘rinboyev, izohlar va lug‘atlarni tuzuvchi – H.Karomatov (jug‘rofiy nomlar izohi – O.Bo‘riyevniki), Hofizu Abruni “Zafarnoma”ga yozgan “Zayl”i (“Illova”) ni forsiydan o‘giruvchi va izohlarini tuzuvchi – O.Bo‘riyev –T.: Fan, 2019. – 542 б.

²⁹ “Зафар йўли”. – Б. 12.

³⁰ Балх дарёси – Балх шаҳридан ўтган шу номли дарё. Лекин илк ўрта асрларда Амударё шу ном билан аталган; чунки, кадимги Балх Амударёга яқин жойлашган эди.

³¹ Номи эслатилганлар Амир Темурнинг амирлари.

³² Аҳмедов Б. Сўзбоши. / Улуғбек, Мирзо Тўрт улус тарихи. / Б.Аҳмедовнинг кириш сўзи, изоҳлари ва таҳририда. Форс тилидан Б.Аҳмедов ва бошқ. Тарж. / - Т.: Чўлпон, 1993. –Б. 3-14. (Кейинги ўринларда – Улуғбек, Мирзо Тўрт улус тарихи.)

³³ Улуғбек, Мирзо Тўрт улус тарихи. –Б 322-323.

3. Гонсалес, Руи де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406). [Text] Гонсалес, Руи де Клавихо.; / Масъул мухаррир: Муҳаммад Али; сўзбоши ва изоҳлар муаллифи М.Сафаров. Таржимон О.Тогаев, -Т.: Ўзбекистон, 2010. – 264 б.
4. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. / Сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари Аҳмад А., Бобобеков Ҳ. –Т.: Шарқ, 1997. – 288 б.
5. Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи Муиний. / Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Ғулом Каримий; масъул мухаррир – А.Ўринбоев. –Т.: Ўзбекистон, 2011. – 264 б.
6. Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи / Пред. предис. примич. и указатели Д.Ю.Юсуповой. –Т.: Фан. 1980. – 346 с.
7. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур: Темур тарихида тақдир ажойиботлари. //Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни У.Уватов тайёрлаган. 1-2-китоб. – Т.: Мехнат, 1992. 1-китоб, - 328 б.
8. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур: Темур тарихида тақдир ажойиботлари. //Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни У.Уватов тайёрлаган. 1-2-китоб. – Т.: Мехнат, 1992. 1-китоб, - 192 б.
9. Аҳмад.А “Зафар йўли”: Нашрга тайёрловчи, таржимон, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи – А.Аҳмад. Муҳаррир – У.Отажон. –Т.: “Нур”, 1992. – 112 б.
10. Улуғбек, Мирзо Тўрт улус тарихи. / Б.Аҳмедовнинг кириш сўзи, изоҳлари ва таҳририда. Форс тилидан Б.Аҳмедов ва бошқ. Тарж. / -Т.: Чўлпон, 1993. – 352 б.